

10-sinf 6-11-mavzular

- 1.** Bir yo‘nalishda rivojlanuvchi tabiiy hodisa va jarayonlarning muayyan vaqt davomida takrorlanib turishiga nima deyiladi?
- A) ritmiklik
B) sektorlik
C) azonallik
D) hududiylik
- 2.** Geografik qobiqda necha xil tarkibiy tuzilish darajalari ajratiladi?
- A) 2
B) 3
C) 4
D) 5
- 3.** Quyidagilardan qaysi biri urochishega misol bo‘la oladi?
- A) yuqori terrasalar
B) jarliklar
C) jarlarning ichi
D) pastqamliklarning tubi
- 4.** Geografik qobiqning qaysi tuzilish darjasini uning vertikal tuzilishini belgilaydi?
- A) geokomponentli
B) geotizimli
C) komponentli
D) geosferali
- 5.** Quyidagilarning qaysi birida topologik ko‘lamdagi geotizim berilgan?
- A) materik
B) o‘lka
C) landshaft
D) zona
- 6.** Vaqt-i vaqt bilan davom etadigan ritmiklik nima deyiladi?
- A) davriylik
B) sikllik
C) zonallik
D) hududiylik
- 7.** Atmosferada namlik, harorat, atmosfera yog‘inlarining yillik o‘zgarishi, mussonlarning esishi qaysi turdagи ritmiklikka misol bo‘ladi?
- A) ko‘p asrlik
B) asr ichidagi
C) yillik
D) sutkalik
- 8.** Relyefning mezoshaklida joylashgan bo‘lib, kelib chiqishi va rivojlanishi jihatdan uzviy bog‘iq bo‘lgan fatsiyalardan iborat geotizim nima deb ataladi?
- A) fatsiya
B) landshaft
C) joy
D) urochishe
- 9.** Texnogen muhit nima?
- A) Aholini o‘rab turgan tabiiy va texnogen muhitni qamrab olgan yashash va mehnat qilish sharoiti.
B) Aholini o‘rab turgan atrof-muhitning bir qismi bo‘lib, inson tomonidan yaratilgan obyektlar, jism va moddalar.
C) Tabiiy jism va moddalarning nimanidir yoki kimnidir o‘rab turuvchi, uming hayotiy faoliyati kechadigan tabiiy sharoit yoki tabiiy sharoitlar mujassamligi.
D) Jamiyatni o‘rab turgan tabiiy sharoit, ijtimoiy ishlab chiqarishning muayyan tarixiy bosqichda tabiatning jamiyat bilan o‘zar ta’sida bo‘ladigan bir qismi.
- 10.** Geografik qobiqning eng sodda tuzilish darajasini toping.
- A) geokomponentli
B) geotizimli
C) komponentli
D) geosferali
- 11.** Quyidagilarning qaysi birida regional darajadagi geotizim berilgan?
- A) geografik qobiq
B) o‘lka
C) landshaft
D) urochishe
- 12.** Fan-teknika inqilobi davri bu –
- A) Jamiyatning geotizimlarni kichik hududlarda, kam buzilishiga sababchi bo‘ladigan hayot tarzi.
B) Jamiyatning o‘z moddiy va ma’naviy ehtiyojarini qondirish maqsadida tabiatdan ayovsiz foydalanadigan hayot tarzi.
C) Jamiyatning sog‘lom va ekologik toza atrof-muhitni iqtisodiy o‘sish bilan teng darajada qadrlanishga asoslangan hayot tarzi.
D) Jamiyatning tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va mavjud tabiiy muhitni saqlab qolish darajasidagi hayot tarzi.
- 13.** Sektorlik nima?

A) Quyosh nurlari tushish burchagini o'zgarishi hisobiga tabiat komponentlari va geotizimlarining ekvatoridan qutblarga tomon qonuniy o'zgarib borishi.
B) Tog'larning etagidan suvayirg'ich tomon tabiatning qonuniy o'zgarib borishi.
C) Tog' va tepalik yonbag'irlarining ufq tomonlariga, quyosh nurlari tushadigan tomonga nisbatan joylashuvi.
D) Quruqlik ichkarisiga tomon okeanlardan uzoqlashgan sari iqlim xususiyatlarining o'zgarishi hisobiga tabiat komponentlari va geotizimlarning o'zgarib borishi.

14. Qaysi geotizim o'zidan katta bo'lgan boshqa geotizimlarga nisbatan tashqi kuchlar ta'siriga beriluvchan va o'zgaruvchan bo'ladi?

- A) joy
- B) urochishe
- C) maydon
- D) fatsiya

15. Glyatsialnival mintaqasi qaysi daryo havzasida 3 600 metr balandlikdan boshlanadi?

- A) Piskom
- B) Qashqadaryo
- C) Ohangaron
- D) To'polondaryo

16. Quyidagi larning qaysi birida sayyoraviy ko'lamdagi geotizim berilgan?

- A) geografik qobiq
- B) materik
- C) zona
- D) provinsiya

17. Tabiat va jamiyat o'rtaqidagi qaysi bosqichda inson eng asosiy «geologik kuch»ga aylandi, regional miqyosdagi geologik muammolar tarkib topdi?

- A) qishloq xo'jaligi inqilobi
- B) fan-texnika inqilobi
- C) sanoat inqilobi
- D) ekologik munosabatlar

18. Yerning ichki jarayonlari va mahalliy omillar tufayli tabiat komponentlari va geotizimlarining o'zgarishiga nima deyiladi?

- A) azonallik
- B) sektorlik
- C) balandlik mintaqalanishi
- D) yonbag'ir ekspozitsiyasi

19. G'arbiy Kavkaz tog'larida qor chizig'i qancha balandlikdan o'tadi?

- A) 2 500 m
- B) 3 000 m
- C) 2 700 m
- D) 3 200 m

20. Tabiat bilan jamiyat o'rtaqidagi qaysi bosqichda Mendeleyev davriy sistemasidagi barcha elementlardan foydalanildi va tabiatga «begona» bo'lgan sun'iy birikmalar paydo bo'ldi?

- A) qishloq xo'jaligi inqilobi davri
- B) sanoat inqilobi davri
- C) fan-texnika inqilobi davri
- D) ekologik munosabatlar davri

21. Balandlik mintaqalanishi qonuniyatini Alp va And tog'larida o'rganib, ilmiy asoslab bergen olimni toping?

- A) Ch. Darvin
- B) A. Gumboldt
- C) E. Bonplan
- D) M. Flinders

22. Aholini o'rabi turgan tabiiy va texnogen muhitni qamrab olgan yashash va mehnat qilish sharoitiga nima deyiladi?

- A) geografik muhit
- B) tabiiy muhit
- C) texnogen muhit
- D) atrof-muhit

23. Jamiyatning tabiatga ta'siri ortib borishining qaysi bosqichida xo'jalik sohalarining dastlabki ko'rinishlari paydo bo'lgan va rivojlangan, aholi o'troq hayot kechira boshlagan va dastlabki shaharlar paydo bo'lgan?

- A) fan-texnika inqilobi
- B) qishloq xo'jalik inqilobi
- C) ibridoiy jamoa
- D) sanoat inqilobi

24. Tog' va tepalik yonbag'irlarining ufq tomonlariga, quyosh nurlari tushadigan tomonga nisbatan joylashuvi nima deb ataladi?

- A) yonbag'ir ekspozitsiyasi
- B) sektorlik
- C) balandlik mintaqalanishi
- D) kenglik zonalligi

25. Jamiatni o'rabi turgan tabiiy sharoit, ijtimoiy ishlab chiqarishning muayyan tarixiy

- bosqichida tabiatning jamiyat bilan o'zaro ta'sirida bo'ladiqan bir qismiga nima deyiladi?
- A) geografik muhit
 - B) atrof-muhit
 - C) tabiiy muhit
 - D) texnogen muhit
- 26.** Geotizim tushunchasi fanga qaysi olim tomonidan kiritilgan?
- A) V. Dokuchayev
 - B) A. Gumboldt
 - C) F. Milkov
 - D) A. Sochava
- 27.** Antropogen landshaftlarning qaysi guruhida inson faoliyati ayrim komponentlarga qina ta'sir etib, tabiiy aloqadorliklar hali buzilmagan bo'ladi?
- A) shartli o'zgartirilmagan
 - B) madaniy
 - C) kuchsiz o'zgartirilgan
 - D) kuchli o'zgartirilgan
- 28.** Sanatoriylar, dam olish maskanlari qaysi landshaft sinfiga misol bo'la oladi?
- A) rekreatsion
 - B) billegerativ
 - C) seliteb
 - D) qishloq xo'jaligi
- 29.** Geografik qobiqning qaysi tuzilish darajasi bitta geokomponentdan tashkil topgan geosferalardan iborat?
- A) geokomponentli
 - B) geotizimli
 - C) komponentli
 - D) geosferali
- 30.** Quyidagi antropogen landshaftlardan qaysi biri belligerativ landshaft sinfiga kirmaydi?
- A) terrikonlar
 - B) himoya qo'rg'onlari
 - C) xandaqlar
 - D) qo'riqchilik tepalari
- 31.** Bir xil davom etadigan ritmiklik nima deyiladi?
- A) davriylik
 - B) sikllik
 - C) zonallik
 - D) hududiylik
- 32.** Seliteb landshaft sinfiga kiruvchi antropogen landshaftlarni toping.
- 1) sanatoriylar; 2) terrikonlar; 3) shaharlar; 4) qal'alar; 5) qishloqlar; 6) kanallar.
 - A) 3, 4
 - B) 2, 6
 - C) 3, 5
 - D) 1, 4
- 33.** Qaysi ritmiklikda gidrosferada suvning harorati, sho'rligi, zichligining yillik o'zgarishi, baliqlarning mavsumiy migratsiyasi kabi jarayonlar kuzatiladi?
- A) yillik
 - B) asr ichidagi
 - C) ko'p asrlik
 - D) sutkalik
- 34.** Qaysi olim inson faoliyatining turi va landshaftlarda qay darajada aks etganini hisobga olib, bareha antropogen landshaftlarni 8 xil landshaft sinfiga ajratadi?
- A) F. Milkov
 - B) A. Isachenko
 - C) X. Moltke
 - D) N. Makiavelli
- 35.** Daryo bo'yalaridagi daraxt–buta–o't o'simliklaridan iborat qalin changalzor o'rmon nima deb ataladi?
- A) voha
 - B) qo'riqxona
 - C) to'qay
 - D) qayir
- 36.** A. G. Isachenko barcha antropogen landshaftlarni nechta guruhga ajratadi?
- A) 2
 - B) 3
 - C) 4
 - D) 5
- 37.** Tog'larning etagidan suvayirg'ich tomon tabiatning qonuniy o'zgarib borishiga nima deyiladi?
- A) sektorlik
 - B) balandlik mintaqalanishi
 - C) azonallik
 - D) kenglik zonalligi
- 38.** Hozirgi paytda, geografik zonallik haqidagi bilimlar qaysi olimning ta'limotiga asoslanadi?
- A) V. Dokuchayev
 - B) A. Gumboldt
 - C) V. Sochava
 - D) F. Milkov

39. G'arbiy Tyanshanning Xontangri qismida qor chizig'i necha metr balandlikda joylashgan?

- A) 3 600
- B) 3 000
- C) 4 500
- D) 4 200

40. Bevosita inson ta'siriga va xo'jalikdagi faoliyatiga duchor bo'lмаган landshaftlar nima deyiladi?

- A) shartli o'zgartirilmagan
- B) kuchsiz o'zgartirilgan
- C) kuchli o'zgartirilgan
- D) madaniy landshaftlar

41. Glyatsialnival mintaqasi qaysi daryo havzasida 3 850 metr balandlikdan boshlanadi?

- A) To'polondaryo
- B) Ohangaron
- C) Qashqadaryo
- D) Sangardakdaryo

42. Karyerlar, konchilik sanoati chiqindilari uyumlari qaysi guruhdagi landshaftlarga misol bo'la oladi?

- A) shartli o'zgartirilmagan
- B) kuchsiz o'zgartirilgan
- C) kuchli o'zgartirilgan
- D) madaniy

43. Jamiyat bilan tabiat o'rtaсидаги qaysi bosqichda ekologik bilim, ong, madaniyat shakllandi va rivojlandi, aholi soni juda tez o'sdi va inson ilm bilan «qurollandi»?

- A) qishloq xo'jaligi inqilobi
- B) sanoat inqilobi
- C) fan-texnika inqilobi
- D) ekologik munosabatlari

44. Tabiiy jism va moddalarning, nimanidir yoki kimnidir o'rabi turuvchi, uning hayotiy faoliyati kechadigan ta biiy sharoit yoki tabiiy sharoitlar mujassamligiga nima deyiladi?

- A) geografik muhit
- B) atrof-muhit
- C) tabiiy muhit
- D) texnogen muhit

45. Sifatli ishlov berilgan bog'lar, paxtazorlar, plantatsiyalar landshaftlarning qaysi guruhiga kiradi?

- A) madaniy

B) buzilgan

- C) kuchsiz o'zgartirilgan
- D) shartli o'zgartirilgan

46. V. B. Sochava fanga geotizim tushunchasini qachon kiritgan?

- A) 1963-yil
- B) 1966-yil
- C) 1968-yil
- D) 1960-yil

47. Bir xil geologik tuzilishi, bitta relyef turi, bir xil iqlimi hamda faqat shu landshaftga xos bo'lgan, o'zaro bog'liq kichik geotizimlar yig'indisidan iborat genetik jihatdan bir butun geotizim nima deb ataladi?

- A) fatsiya
- B) landshaft
- C) joy
- D) urochishe

48. Qachonga kelib, inson xo'jalik faoliyati ta'sirida o'zgargan geotizimlarni antropogen landshaftlar deb, ularni alohida o'ziga xos geotizim sifatida ilmiy tadqiq etish boshlandi?

- A) XX asrning 50-yillari
- B) XX asrning 60-yillari
- C) XX asrning 70-yillari
- D) XX asrning 80-yillari

49. Jamiyatning tabiatga ta'siri ortib borishining qaysi bosqichida mehnat qurollari ancha takomillashib borishi natijasida inson bilan tabiat munosabatlari buzila boshlagan, ayrim ov hayvonlari va o'simliklar miqdor jihatdan kamaygan?

- A) fan-texnika inqilobi
- B) sanoat inqilobi
- C) ibridoiy jamoa
- D) qishloq xo'jalik inqilobi

50. Tuzilishi inson tomonidan jamiyat manfaatlarini ko'zlagan va ilmiy asoslangan holda oqilonqa o'zgartirilgan landshaftlarga nima deyiladi?

- A) shartli o'zgartirilmagan
- B) kuchsiz o'zgartirilgan
- C) kuchli o'zgartirilgan
- D) madaniy